



XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 13 - aprel

VI-46-31-11-166-K/22

Qo'qon shahar hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag'lar ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 26 yanvardagi KQ-302-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag'lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 26 yanvardagi KQ-302-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 1-fevralidan 2-apreligacha qadar o'tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo'yicha shahar hokimligi moliya bo'limi mudiri L.Mamadjanovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Qo'qon shahar

Kengashining 2022 yil 05 fevral kungi VI-43-16-11-166-K/22- sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, “ENG KO’P” ovoz olgan hamda “Ochiq byudjet” axorot portalida avtomatik tarzda g’olib sifatida tanlab olingan 14 ta takliflar “g’olib” deb topilsin va mazkur takliflarni moliyalashtirish bo’yicha “Manzilliy ro’yhat” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo’yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko’payishi yoki loyihaning o’zgartirilishi bilan bog’liq o’zgartirishlar kiritilishiga yo’l qo’yilmaslik;

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo’naltiriladigan mablag’larni shahar hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi” shaxsiy g’azna hisobvarag’ida jamlangan mablag’larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qo’yilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilliy ro’yhat asosida:

- shahar hokimligi Moliya bo’limi (L.Mamadjanov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta’minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag’ manbaasi bo’yicha (4017) “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- shahar hokimligi hisobxonasi (R.Kuldashev) jamg’arma mablag’lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag’lar yo’naltirilishini;

- buyurtmachi tashkilotlar raxbarlariga ajratilgan mablag’larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli va samarali ishlatilishi hamda amalga oshirilgan ishlar bo’yicha Halq deputatlari shahar Kengashi va shahar hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma’lumot kiritib borilishini ta’minlasin.

4. Shahar hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (U.Norboev) va shahar moliya bo’limi bosh iqtisodchisi (A.Maroziqov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g’olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo’yicha ma’lumotlarni “Ochiq byudjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash va nazorat qilish Xalq deputatlari Qo’qon shahar Kengashi doimiy komissiyalari a’zolari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Usmonov

Xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashining
2022 yil 13 apreldagi
VI-46-31-11-166-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qo'qon shahar bo'yicha 2022 yil "Tashabbusli byudjet" jarayonining 1-bosqichi natijalariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha

MANZILLI RO'YXAT

№	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Xaqiqatda jami ajratilgan mablag'	Shundan Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot
	Taklif ID raqami	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni				
Qo'qon shahar jami				8 349 000	8 349 000	8 349 000	
1	1390400020	45-Ashurali Zoxiriy MFY ning ichki ko'chalarini infratuzilmasini yaxshilash	1608	950 000	950 000	950 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
2	1390400011	Qo'qon shahar 8- Yangi chorsu MFY ning infrastrukturasi yaxshilash	1606	1 000 000	1 000 000	1 000 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
3	1390400136	44-Avg'onbog' MFY xududidagi Davronbek ko'chasini suv oqava tizimiga ulash	1558	140 000	140 000	140 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
4	1390400012	Qo'qon shahar 39-Oq oltin MFYning chala qolgan binosini ta'mirlash	1540	400 000	400 000	400 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
5	1390400107	63-Quduqlik MFY ga qarashli Movarounnaxr ko'chasidagi O'zbekiston Madaniyat va san'at instituti Farg'ona mintaqaviy filiali piyodalar yulakchasiga rodina svetafor o'rnatish	1345	50 000	50 000	50 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi

6	1390400061	45-A.Zoxiriy MFY ga qarashli Mustaqillik, Alinazar ota ko'chalariga 1-dona KNS qurish va kanalizasiya tarmog'iga ulash	1225	1 000 000	1 000 000	1 000 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
7	1390400073	Qo'qon shahar Axborot kutubxona markazining moddiy texnik bazasini kengaytirish	1109	150 000	150 000	150 000	Qo'qon shahar Axborot kutubxona markazi
8	1390400060	40-Nurafshon MFY ga qarashli Mirishkor, Firdavsiy, Dang'ara, Sunxondaryo, Orzu, ko'chalariga oqava suv tarmog'iga ulash va 1 dona KNS qo'yish	1071	980 000	980 000	980 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
9	1390400126	63-Quduqlik MFY xududidagi 37-maktabning piyodalar yo'lakchasiga svetafor o'rnatish	1017	62 000	62 000	62 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
10	1390400009	8-Yangi chorsu MFY ko'chalarini asfalt qilish kerak	1013	800 000	800 000	800 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
11	1390400049	Qo'qon shahar Quduqlik ko'chasidagi eskirgan transformatorni yangi 400 kv lik transformatorga almashtirish v 60 ta sim yog'ochlarni beton stolbaga almashtirish xamda 2 km xavo uzatkichlarni yangilash	1007	490 000	490 000	490 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
12	1390400062	60-Usta bozor MFY ning ichki ko'chalariga 1050 metr D-200 va D-110 mm ichimlik suvi tortish	971	447 000	447 000	447 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
13	1390400039	Qo'qon shahridagi 11-Charxini ko'prigi MFYning infratuzilmasini yaxshilash	966	918 000	918 000	918 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi
14	1390400038	Qo'qon shahridagi 11-Charxini ko'prigi MFYning infratuzilmasini yaxshilash	953	962 000	962 000	962 000	Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi